

TURKISTON MUXTORIYATI PAYDO BO‘LISHI DAVRIDA MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING SIYOSIY QARASHLARI HAMDA UNING MATBUOTDA YORTILISHI

Abdurasulova Mohinur Muhammadqodir qizi

ADU, Adabiyotshunoslik yo‘nalishi

2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan milliy-ozodlik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy qarashlari kompleks tahlil etildi. Muallif jadidchilik harakatining faol vakili sifatida Behbudiyning milliy uyg‘onish g‘oyalari, ta‘lim tizimini isloh etish konsepsiyasi, matbuot orqali ijtimoiy-siyosiy ongni shakllantirishga qaratilgan faoliyati hamda siyosiy modernizatsiya haqidagi qarashlarini ilmiy manbalar asosida yoritadi. Shuningdek, maqolada uning “Samarqand” gazetasida e‘lon qilingan maqolalari, millat taraqqiyoti haqidagi nazariy qarashlari, Turkiston musulmonlarining siyosiy huquqlari va o‘zini o‘zi boshqarish masalasiga doir pozitsiyasi, 1916–1917 yillardagi inqilobiy jarayonlar davridagi amaliy siyosiy faoliyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudi, jadidchilik harakati, milliy uyg‘onish, milliy-ozodlik harakati, Turkiston, “Samarqand” gazetasi, siyosiy tafakkur, ta‘lim islohoti, siyosiy modernizatsiya, musulmonlar huquqlari.*

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the political views of Mahmudkhoja Behbudi, one of the prominent leaders of the national liberation movement in Turkestan in the early twentieth century. As an active representative of the Jadid reformist movement, Behbudi’s ideas on national awakening, educational reform, the development of the press as a tool for shaping socio-political consciousness, and political modernization are examined on the basis of historical and scholarly sources. The article also analyzes his publications in the newspaper “Samarqand”, his conceptual vision of national progress, his position on the political rights and self-governance of Turkestan Muslims, and his practical political activities during the revolutionary events of 1916–1917.

Keywords: *Mahmudkhoja Behbudi, Jadidism, national awakening, national liberation movement, Turkestan, “Samarqand” newspaper, political thought, educational reform, political modernization, Muslim rights.*

Аннотация: В данной статье проводится комплексный анализ политических взглядов Махмудходжи Бехбуди — одного из ведущих

представителей национально-освободительного движения в Туркестане начала XX века. Как активный участник джадидского реформаторского движения, Бехбуди рассматривал вопросы национального пробуждения, реформирования системы образования, развития печати как инструмента формирования общественно-политического сознания, а также политической модернизации общества. В статье анализируются его публикации в газете «Самарканд», концепция национального прогресса, позиция по вопросам политических прав и самоуправления мусульман Туркестана, а также его практическая деятельность в период революционных событий 1916–1917 годов.

Ключевые слова: *Махмудходжа Бехбуди, джадидизм, национальное пробуждение, национально-освободительное движение, Туркестан, газета «Самарканд», политические взгляды, реформа образования, политическая модернизация, права мусульман.*

XX asr boshlarida Turkiston xalqlarining milliy uygʻonish jarayoni murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitda kechdi va mazkur tarixiy bosqichda Mahmudxoʻja Behbudiy (1875–1919) shaxsiyati alohida ahamiyat kasb etdi. U nafaqat jadid maktablari tashkilotchisi va yangi usul taʼlim gʻoyalarining targʻibotchisi, balki chuqur ijtimoiy-siyosiy tafakkur sohibi sifatida milliy ozodlik va taraqqiyot konsepsiyasini ilgari surgan yirik jamoat va siyosat arbobi edi.

Behbudiyning faoliyati maʼrifatparvarlik bilan cheklanib qolmay, jamiyatni tubdan yangilashga qaratilgan keng qamrovli siyosiy qarashlar tizimini ham oʻz ichiga oladi. Uning siyosiy tafakkuri jadidchilik harakatining ilmiy-nazariy asoslarini shakllantirish, Turkiston musulmonlarining siyosiy va fuqarolik huquqlarini himoya qilish, shuningdek, millat taraqqiyotining strategik yoʻnalishlarini belgilash masalalari bilan chambarchas bogʻliq edi.

Shu bois, Behbudiyning siyosiy qarashlarini tahlil etish nafaqat jadidchilik harakatining mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash, balki Turkiston jamiyatining modernizatsiya jarayonlari va milliy davlatchilik gʻoyalarining shakllanish bosqichlarini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

1913–1914 yillarda Mahmudxoʻja Behbudiy tomonidan asos solingan hamda Samarqand shahrida nashr etilgan “Samarqand” gazetasi orqali u oʻz siyosiy va ijtimoiy qarashlarini keng jamoatchilikka yetkazish imkoniyatiga ega boʻldi. Mazkur gazeta qisqa faoliyat yuritganiga qaramay, Turkiston matbuoti tarixida muhim oʻrin egalladi hamda mintaqada milliy-siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanishida sezilarli taʼsir koʻrsatdi. “Samarqand” gazetasi sahifalarida eʼlon qilingan maqolalari orqali Behbudiy jamiyatning dolzarb muammolarini koʻtarib chiqdi, islohotlar zaruratini asoslab berdi hamda millatning istiqboli bilan bogʻliq konseptual gʻoyalarni ilgari surdi.

Behbudiyning “Millatlar qanday taraqqiy etarlar?” nomli maqolasi uning siyosiy-ijtimoiy qarashlari tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu asarda muallif millat taraqqiyotining nazariy asoslarini tahlil qilib, rivojlanishning asosiy omillari sifatida ma’rifat, zamonaviy ta’lim, iqtisodiy faollik, ijtimoiy hamjihatlik hamda siyosiy ongni shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, millatning ravnaqi avvalo bilim va tafakkur darajasining yuksalishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, jaholat va beparvolik taraqqiyot yo‘lidagi asosiy to‘siq hisoblanadi.

Shu tariqa, mazkur maqola Behbudiyning milliy uyg‘onish va modernizatsiya haqidagi qarashlarini tizimli ravishda ifodalab, jadidchilik harakatining mafkuraviy asoslarini ochib beruvchi muhim manba sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, maqolada Behbudiy har bir millatning taraqqiyoti uchun birinchi va eng muhim shart sifatida ta’limni ko‘rsatadi. U ta’limni shunchaki savodxonlikka o‘rgatish emas, balki millat axloqini shakllantirish, ilm va fan asoslarini o‘rgatish, zamonaviy bilimlarni egallash vositasi sifatida tushuntiradi. Behbudiy millat uchun maktab va madrasalarning isloh qilinishi, yangi usuldagi maktablar ochilishi zarurligini alohida ta’kidlaydi. Shuningdek, millatning uyg‘onishi uchun kitob, gazeta va jurnallarning muhim ahamiyatini ta’kidlaydi. Behbudiy: “Taraqqiy qilguvchi millatlarning ulamosi zamondin boxabar bo‘lib, o‘z millatining “masoliha zamoniyya”si uchun sa’y etar, millatni peshraftig‘a oqcha ila, hayrat ila iona qilmoqni millat boylarig‘a taklif etar, tashviq va tahrir etar. Xulosa, har millatni ulamosi, ahli qalami millat uchun so‘ylar, yozar va havoiji milliya va zamoniyan o‘z millat mansubasig‘a bildirarlar. Zamona ag‘niyolari o‘z millatlarini zamoniycha kerakligi yo‘linda oqcha sarf etarlar, masalan, yangi usulda zamonaviy maktablar bino etib, zamoniycha odam tayyorlamoq uchun harakat etarlar” deb yozadi. Shu sababli, uning o‘zi “Samarqand” gazetasini asos solgan va unda milliy-siyosiy masalalarni muntazam yoritgan.

Behbudiy millat taraqqiyotida iqtisodiy mustaqillikning ahamiyatini chuqur tushungan. U dehqonchilik, savdo, hunarmandchilik rivojiga katta e’tibor berish kerakligini ta’kidlaydi. Zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishni, iqtisodiy bilimlarni oshirishni millat kelajagi uchun muhim vazifa sifatida ko‘rsatadi.

Qolaversa, davlat arbobi sifatida millat taraqqiyotida axloqiy jihatlarning muhimligini alohida qayd etadi. U yoshlarni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, ilmga muhabbat ruhida tarbiyalash zarurligini ta’kidlaydi. Behbudiy musulmonlarning zamonaviy madaniyatni o‘zlashtirishi bilan birga o‘z milliy va diniy qadriyatlarini ham saqlashi kerakligini alohida uqtiradi.

Behbudiyning siyosiy qarashlari tizimida turkiy xalqlarning birligi va hamkorligi g‘oyasi alohida o‘rin tutadi. Uning “Qozoq qarindoshlarimizga ochiq xat” maqolasi bu g‘oyaning yorqin namunasidir. Ushbu maqolada Behbudiy qozoq, o‘zbek, turkman, qirg‘iz, tatar va boshqa turkiy xalqlarni “qarindosh millatlar” deb ataydi va

ularning umumiy tarixiy kelib chiqishi, til va madaniy yaqinligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra yozadi: "Aziz qarindoshlarim! Musulmon birodarlar! +

Behbudiy Turkiston musulmonlarining o'z mahalliy ishlarini o'zlari boshqarish huquqini talab qiladi. U shahar dumalarida, mahalliy kengashlarda musulmonlarning nisbatan ko'proq ishtirok etishi zarurligini asoslaydi. Shuningdek, u musulmonlar tomonidan saylanadigan mahkamalar va boshqaruv organlarini tashkil etish g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi. "Samarqand" gazetasini nashr etish jarayonida u muntazam ravishda senzura va chor hukumati nazorati bilan to'qnashib keladi.

1917-yilgi fevral inqilobidan so'ng Rossiya imperiyasida yuzaga kelgan siyosiy o'zgarishlar Turkiston o'lkasida ham milliy kuchlarning faollashuviga turtki berdi. Mazkur tarixiy sharoitda Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston musulmonlarining siyosiy tashkilotlarini shakllantirish va ularning dasturiy yo'nalishlarini belgilash jarayonida faol ishtirok etdi. U milliy o'zini o'zi boshqarish tamoyiliga asoslangan Turkiston Muxtoriyati g'oyasini qo'llab-quvvatlab, uni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish tarafdori sifatida maydonga chiqdi.

1917-yil kuzida chaqirilgan Turkiston musulmonlarining O'lka Qo'rultoyi (IV Qurultoy) muxtoriyat e'lon qilinishi bilan yakunlandi. Ushbu siyosiy voqea Turkiston tarixida milliy davlatchilikni tiklash yo'lidagi muhim bosqich sifatida baholanadi. Turkiston Muxtoriyati davrida Behbudiy siyosiy faoliyatda ishtirok etgan va mahalliy maorif, vaqf va milliy masalalar bilan bevosita shug'ullangan.

Uning muxtoriyat haqidagi qarashlari tor ma'nodagi siyosiy mustaqillik bilan cheklanmagan bo'lib, musulmon aholisining siyosiy va fuqarolik huquqlarini ta'minlash, milliy madaniyatni rivojlantirish hamda zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirish orqali jamiyatni modernizatsiya qilish g'oyalarini o'z ichiga olgan edi. Shu jihatdan, Behbudiy uchun muxtoriyat nafaqat boshqaruv shakli, balki milliy uyg'onish va taraqqiyotning institutsional asosini yaratish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Maxmudxo'ja Behbudiyning siyosiy qarashlari bir necha jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega:

Birinchidan, u millat taraqqiyotini kompleks yondashuv bilan ko'rib chiqadi. U faqat siyosiy huquqlar uchun kurashmaydi, balki ta'lim, iqtisodiyot, madaniyat, axloq sohasidagi islohotlar bilan birga siyosiy o'zgarishlarga erishish zarurligini tushunadi. Bu yondashuv jadidchilik harakatining umumiy tamoyillariga to'liq mos keladi.

Ikkinchidan, Behbudiy g'arbiy madaniyat va zamonaviy tushunchalarni o'zlashtirishni ma'qullaydi, biroq bu jarayonda milliy va islomiy qadriyatlarni yo'qotmaslik kerakligini ta'kidlaydi. U musulmonlarning zamonaviy ilm-fan va texnologiyani o'rganishini qo'llab-quvvatlaydi, lekin bu jarayonda o'z milliy o'zligini yo'qotmaslik muhimligini alohida uqtiradi.

Uchinchidan, Behbudiy tinchlik yo‘li bilan, qonuniy vositalar orqali o‘zgarishlarga erishishni afzal ko‘radi. U zo‘ravonlik va radikalizm yo‘llarini qo‘llab-quvvatlamaydi. Biroq, shu bilan birga, musulmonlarning huquqlari va manfaatlari uchun qat’iy va izchil kurashish zarurligini ta’kidlaydi.

To‘rtinchidan, Behbudiy turkiy va musulmon xalqlarning hamkorligi va birligi g‘oyasini ilgari suradi. U Turkiston, Qozoq o‘lkalari, Qrim, Qozon va boshqa hududlardagi musulmonlar o‘rtasida yaqin aloqalar o‘rnatish, umumiy muammolarni birga hal qilish zarurligini ta’kidlaydi. Bu g‘oya keyinchalik panturkizm va panislamizm g‘oyalariga qarshi kurash bahonasi sifatida ishlatilgan bo‘lsa-da, aslida u mintaqa xalqlarining taraqqiyoti va hamkorligi uchun zarur edi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy qarashlari XX asr boshi Turkiston milliy-ozodlik harakatining muhim nazariy asoslarini tashkil etadi. Uning ta’lim va ma’rifat, matbuot erkinligi, demokratik huquqlar, millat taraqqiyoti, turkiy xalqlar birligi kabi masalalardagi g‘oyalari jadidchilik harakatining umumiy yo‘nalishini belgilashga yordam bergan.

Behbudiy Turkiston musulmonlarini zamonaviylashtirish, ularni milliy va siyosiy jihatdan uyg‘otish, Rossiya imperiyasi tarkibida o‘z huquqlari uchun kurashish yo‘llarini ko‘rsatgan. Uning “Samarqand” gazetasida nashr etilgan maqolalari va ijtimoiy-siyosiy faoliyati Turkiston xalqlarining milliy ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan.

Garchi u 1919 yilda fojiaiviy tarzda halok qilingan bo‘lsa-da, uning g‘oyalari va kurashi keyingi avlodlar uchun ilhom manbai bo‘lib qoldi. Bugungi kunda mustaqil O‘zbekiston tarixini o‘rganishda Behbudiy kabi milliy g‘oyalar arboblari faoliyatini chuqur tahlil qilish va ularning xizmatlarini to‘g‘ri baholash alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ham, Behbudiyning siyosiy qarashlari — millat taraqqiyoti, ta’lim islohoti, demokratik huquqlar, turkiy xalqlar hamkorligi — bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Bu g‘oyalar mustaqil O‘zbekiston va mintaqa davlatlarining rivojlanishi, halqaro hamkorligi, milliy va madaniy taraqqiyoti uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **N.Abdushukurov.** *Mahmudxo‘ja Behbudiy va jadidchilik harakati.* – Toshkent: “Sharq”, 2001.
2. **M.Behbudiy.** *Tanlangan asarlar.* – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1998.
3. **X.Sh.Inoyatov.** *O‘zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob: Turkiston rus mustamlakasi sifatida.* – Toshkent: “Sharq”, 2000.
4. **Keller, S.** *To Moscow, Not Mecca: The Soviet Campaign against Islam in Central Asia, 1917–1941.* – Westport: Praeger, 2001.
5. **Khalid, A.** *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia.* – Berkeley: University of California Press, 1998.

6. **N.Normurodov.** *Jadidchilik harakati va milliy musiqa madaniyati.* – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2005.
7. **O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.** – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2005. (Ko‘p jildli nashr.)
8. **B.Qosimov.** *XX asr boshi Turkiston matbuoti tarixi.* – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1997.
9. **“Samarqand” gazetasi.** 1913–1914 yillardagi sonlar. – Samarqand. Arxiv: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi fondi. www.ziyouz.com

